



UDK: 745.51:069(575.172)

Hayitboy XUDAYBERGENOV,
Urganch davlat tibbiyot instituti dotsenti, PhD
E-mail: xudaybergenovhayitboy@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, DSc, J.Shodiyev taqrizi asosida

XORAZM YOG' OCH O'YMAKORLIGI: MUZEYLASHTIRISH, SAQLASH VA TARG'IB ETISHNING TARIXIY-AMALIY JIHLTLARI (ICHAN-QAL'A MUZEYI MISOLIDA)

Аннотация

Maqolada Xorazm hududida shakllangan yog' och o'ymakorligi an'analari, ularning tarixiy rivoji va hududiy uslubiy xususiyatlari tahlil etilgan. Arxeologik manbalar va "Ichan-qal'a" muzey-qo'riqxonasi ekspozitsiyalari asosida Xiva yog' och o'ymakorligi maktabining o'ziga xos badiiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, taniqli ustalar ijodi orqali ustoz-shogird an'anasining davomiyligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, yog' och o'ymakorligi, Xiva maktabi, Ichan-qal'a, xalq amaliy san'ati.

ХОРЕЗМСКАЯ РЕЗЬБА ПО ДЕРЕВУ: ИСТОРИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МУЗЕИФИКАЦИИ, СОХРАНЕНИЯ И ПОПУЛЯРИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ МУЗЕЯ ИЧАН-КАЛА)

Аннотация

В статье рассматриваются традиции художественной резьбы по дереву в Хорезме, их историческое развитие и региональные особенности. На основе археологических материалов и экспозиций музея-заповедника «Ичан-кала» раскрываются характерные черты Хивинской школы резьбы по дереву. Особое внимание уделено роли известных мастеров и сохранению традиции «устоз-шогирд» в народном декоративно-прикладном искусстве.

Ключевые слова: Хорезм, резьба по дереву, Хивинская школа, Ичан-кала, народное искусство.

KHOREZM WOOD CARVING: HISTORICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF MUSEIFICATION, PRESERVATION AND PROMOTION (ON THE EXAMPLE OF THE ICHAN-KALA MUSEUM)

Annotation

The article examines the traditions of wood carving in the Khorezm region, focusing on their historical development and regional stylistic features. Based on archaeological findings and the collections of the Ichan-Qala State Museum-Reserve, the distinctive characteristics of the Khiva school of wood carving are analyzed. The study also highlights the role of prominent masters and the continuity of the master-apprentice tradition in Uzbek applied art.

Key words: Khorezm, wood carving, Khiva school, Ichan-Qala, folk applied art.

Kirish. Xorazm yog' och o'ymakorligi o'zining chuqur tarixiy ildizlari, nafis badiiy uslubi va ramziy-ma'naviy mazmuni bilan milliy amaliy san'atimizning eng yuksak namunalari qatoriga kiradi. Asrlar davomida shakllangan ushbu san'at turi me'moriy obidalar, masjid va madrasalar ustunlari, eshik va darvoza bezaklarida o'zining mukammal ifodasini topgan bo'lib, xalqning estetik tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashini aks ettiradi. Bugungi globallashuv sharoitida bunday noyob merosni ilmiy asosda muzeylashtirish, saqlash va keng jamoatchilikka samarali targ'ib etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, Ichan-Qal'a muzeyi misolida yog' och o'ymakorligi namunalari konservatsiya qilish, restavratsiya jarayonlarini takomillashtirish va zamonaviy ekspozitsion yondashuvlar orqali namoyish etish tajribasini o'rganish nafaqat madaniy merosni asrash, balki uni milliy o'zlikni anglash va turizmni rivojlantirish omiliga aylantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm yog' och o'ymakorligi masalasi asosan san'atshunoslik va me'morchilik tarixiga oid tadqiqotlar doirasida yoritilgan bo'lib, unda naqsh kompozitsiyasi, islmiy va g'irih bezaklarining badiiy xususiyatlari hamda ustoz-shogird an'analari keng tahlil qilingan; biroq mazkur merosni muzeylashtirish, saqlash va zamonaviy targ'ib etishning kompleks mexanizmlari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Xususan, Ichan-Qal'a

majmuasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda asosan me'moriy obidalar va ularning bezak elementlari tavsiflangan bo'lsa-da, yog' och o'ymakorligi namunalari fondshunoslik, konservatsiya va ekspozitsion talqini masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam yoritilgan. Shu bois, mavjud adabiyotlar tarixiy-badiiy jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qilsa-da, ularni muzeyshunoslik, madaniy merosni boshqarish va turizmni rivojlantirish konsepsiyalari bilan integratsiyalash zarurati mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik va kompleks yondashuv tamoyillari tashkil etadi; ya'ni Xorazm yog' och o'ymakorligi shakllanishi va taraqqiyoti avvalo manbaiy-tarixiy tahlil orqali o'rganildi, so'ngra uning badiiy-uslubiy xususiyatlari qiyosiy-tahliliy metod vositasida boshqa hududiy maktablar bilan solishtirildi. Shu bilan birga, Ichan-Qal'a muzeyi fondida saqlanayotgan namuna ob'ektlar asosida empirik kuzatuv, vizual tahlil va atributsiya usullari qo'llanildi; restavratsiya va konservatsiya jarayonlarini baholashda muzeyshunoslik va madaniy merosni muhofaza qilish nazariyasiga tayanildi. Tadqiqotda hujjatli manbalar tahlili, intervyu va ustoz-shogird an'alariga doir etnografik yondashuv elementlari ham qo'llanib, natijada yog' och o'ymakorligini muzeylashtirish, saqlash va targ'ib etishning ilmiy-amaliy mexanizmlari o'zaro bog'liq tizim sifatida yoritildi.

Tahlil va natijalar. Qadimdan ma'lum-ki, otobobolarimiz insoniyat vujudga keltirgan kashfiyot, ilm-fan cho'qqilarini egallab, o'z hunarlarini avlod-dan-avlodga o'tkazib kelmoqdalar. Shular jumlasidan, yog'ochga naqsh o'yish va gul solish san'ati hamisha ardoqlanib kelingan. Xozirgi paytda yog'och o'ymakorligi me'morchilik bilan bir qatorda uy-ro'zgor buyumlariga bezak berishda keng qo'llanilmoqda. Mahalliy an'analarni avaylab, ardoqlab, ularni yangi usul bilan boyitayotgan xalq ustalari, asrlar davomida sayqal topgan qadimiy san'atning yetuk namunalarini yaratmoqdalar.

Hunarmandchilikning yog'och o'ymakorligi - O'rta Osiyoda, ya'ni O'zbekiston hududida qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zgor buyumlari va axitekturasida keng qo'llanilgan. Yog'ochga qayta ishlov berish - eshik, darvoza, ustunlar, har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeologik tadqiqotlarga tayanib, O'rta Osiyoda barelyefli, ya'ni juda bo'rtik (1mm dan 20 mm gacha) releflar bilan har xil narsalarni yog'ochdan o'yib ishlanganligi ko'rishimiz mumkin. Xalq yaratgan asarlar o'zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog'ochdan ishlangan ajoyib yog'och o'ymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o'tishi bilan ular namga dosh beraolmay deyarli ko'pchiligi chirib, yo'q bo'lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

Xususan, arxeologik qazishmalar chog'ida, "V-VI asrlarda yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi yumaloq tepa tubidan topilgan [1]. Olimlarning aniqlashicha, bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o'ymakorligi san'ati bo'lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan ham topilgan"[2].

Shu o'rinda, Xiva "Ochiq osmon ostidagi muzey" (H-X) sifatida "Ichan-qal'a"ning tarixi xalq ustalarining eng nozik did bilan ishlangan me'moriy tarixiy yodgorliklari, xon saroylari, madrasalar, masjidlar, minoralar saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Tirik tarix hisoblangan "Ichan-qal'a" tarixiy yodgorliklarining har bir g'ishtida, qo'li gul halq ustalarining o'lmas ijodini ko'rishimiz mumkin"[3].

Aslida, hunarmandchilikda yog'och o'ymakorligining o'ziga xos turli uslublari va usullari mavjud bo'lib, ya'ni Xiva yog'och o'ymakorligi o'ymasining monumentalligi, yog'och tabiiy rangining saqlab qolishi bilan boshqa hududlardan hududiy xususiyatlari bilan farqlanadi [4].

Darhaqiqat, respublikamizning Qo'qon, Xiva, Samarqand, Toshkent maktablari mavjud bo'lib, Buxoro yog'och o'ymakorligi o'yama naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi, Marg'ilon yog'och o'ymakorligi chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelganlar[5]. Qo'qon o'ymakorligi esa kalta bo'rtmali, yassi o'yama ishlatganlar. Toshkentda esa, naqsh bilan qoplangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda, o'yama naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi (harakatchanligi, dinamikaviyligi), ya'ni novdalarni spiralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil qilishi bilan farq qiladi [6]. Shuningdek, yog'och o'ymakorligi buyumlarida naqsh elementlaridan olma guli, qo'chqorshox, bodom guli, uch yaproqli, uch g'uncha, oddiy yaproq, turunj, rapida turunj, toj, gujum, burch gul naqshlarini qo'llaganliklarini ko'ramiz [7]. "Xiva o'ymakorligi ustalari ko'pincha qayrag'och, terak va chinor yog'ochlarini ko'proq

ishlatadilar, ular yog'och rangining tabiiyligini saqlagan holda uning yuzasiga va zaminiga paxta, zig'ir (xorazmcha-oq yog') yog'i berganlar." Xiva naqshlarining olmagul, aylanma naqsh, arqon, tirnoq hamda boshqa nomlar bilan ataluvchi yuzdan ziyod turlari bor[8]. Eng chiroyli naqsh ikki, ba'zan uch qatlam qilib o'yiladi. Ustalar bir naqshni boshqa naqshga takrorlamalik, birovdan nusxa olmaslikka intilgan. Shuning uchun ham yog'ochga o'yilgan naqshlar nihoyatda mukammal bo'lib, ular zamirida ramziy ma'nolar yashiringan. Xorazm yog'och o'ymakorligida 30 dan ziyod gullardan foydalanilgan. Shular orasida mayda gular kam etibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ayniqsa, "Uchyaproqli", "Uch g'unchali", "Uch kosali" va boshqa gullardan ayniqsa koshinpaz naqshlar tomonidan sevib ijod qilingan. Xozirda "Ichan-qal'a" davlat muzeyida milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan xalq amaliy san'atining eng noyob yodgorliklari saqlanadi [9].

Xorazm amaliy san'ati ekspozitsiyalari "Ichan-qal'a"dagi eng chiroyliligi va bebaholigi bilan ajralib turadi. Muzey ekspozitsiyasi 1983-yilda buyuk alloma, matematik olim Al-Xorazmiy tavalludining 1200 yillik yubileyiga bag'ishlab ochilgan. Bu muzey asli xorazmlik, tarixchi va faylasuf Beruniy sharafiga ham shunday nomlangan. Xususan, muzey ekspozitsiyasi eski Toshhovli saroyidan olib kelingan. Arxeologiya bo'limi taniqli olim sharqshunos S.P.Tolstov rahbarligi ostida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi materiallari asosida barpo etilgan. Muzeyda Qo'yqirilgan qal'a (miloddan avvalgi 3-asr) va Tuproqqal'a (milodiy 6-asr) ko'hna joylaridan topilgan arxeologik yodgorliklar namoyish etilgan. Ibadatxonadan "Xorazm ma'budasi ushlagan ko'za" deb nom olgan haykal topilgan bo'lib, uning nusxasini muzeyda ko'rish mumkin. Tuproqqal'a saroyidan topilgan haykal va monumental qo'lyozma parchalari o'ziga xos qiziqish uyg'otadi. Ichan-qal'a va Dishan-qal'adagi ta'mirlash ishlari mobaynida topilgan arxeologik obidalar, maketlar, keramik qoplama parchalari o'rta asrlar madaniyati haqida hikoya qiladi [10]. Mazkur muzey, 1991-yildan keyin ekspozitsiya zallari, mustaqillik ruhida qaytadan rekspozitsiya qilingan.

Xorazm amaliy san'ati ekspozitsiyasida san'at durdonalarining 398 namunalari namoyish etib kelinmoqda [11]. Bugungi kunda muzeyda XIII asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab olgan qo'li gul ustalar tomonidan yaratilgan bebaho amaliy san'at durdonalarini va Xorazm amaliy san'ati ekspozitsiyasida xalq amaliy san'atining 11 xil turidagi namunalarini ko'rish mumkin[12]. Jumladan, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, to'qimachilik, marmar o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, gilamchilik, kulolchilik, xattotlik, misgarlik, kandakorlik, ko'nchilik, pichoqchilik, zargarlik buyumlari namoyish qilinmoqda. Muzeyda saqlanayotgan noyob eksponatlardan biri, XIX asr Xiva yog'och o'ymakorligi maktabiga mansub Ro'z muxammad usta ishlagan noyob qo'sh tabaqali eshik hisoblanadi. Eshik o'yamasi - nafis, chiroyli qilib, "turunj" naqsh kompozitsiyasi ishlangan, atrofiga xoshiya islimiy va o'simliksimon naqshlar o'yilgan [13].

Ekspozitsiyada Xivaning mashhur yog'och o'ymakorlari Ota Polvonov, S.Bog'ibekov va uning o'g'illari X.Bog'ibekov, A.Bog'ibekov, shogirdlari D.Ibragimov, Q.Jumaniyazov, Sh.Ro'zmetov, D.Qutlimuradovlar tomonidan ishlangan yog'och o'ymakorligi buyumlari namoyishga qo'yilgan [14]. Muzey ekspozitsiyasida Xiva yog'och o'ymakorligi maktabining taniqli ustalaridan biri Ota Polvonov ijodiga mansub ikki tabaqali yog'ochdan o'yib ishlangan qadimiy noyob eshik saqlanmoqda [15]. Ushbu eshik, 1946-yilda ishlangan bo'lib, naqqosh Abdullo Boltayev va o'ymakor usta Ota Polvonovning birgalikdagi ijod namunasi hisoblanadi.

1934-yilda Ota Polvonov ko'hna ta'mirlash ishlarida ishtirok etib naqqosh Abdullo Boltayev tayyorlagan taxta

yordamida ustun va eshiklarni qayta ta'mirladi. Arkdan tashqari, Toshhovli, Nurillaboy saroyi va boshqa va qadimiy binolarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi. Ota Polvonov va naqqosh Abdulla Boltaev hamkorligi ko'p muvaffaqiyatlarga olib keldi. Mashhur usta shogirdi Sapo Bog'ibekov bilan birgalikda naqqosh Abdulla Boltayev ko'magida 1937-yilda tayyorlagan yog'och ustun Parijdagi xalqaro ko'rgazmada oltin medal va birinchi darajali diplom bilan taqdirlangan [16]. 1940-yildan boshlanib, 7 yil maboyida bunyod etilgan, Toshkentdagi Alisher Navoy nomidagi katta akademik opera va balet teatri binosining Xiva zalida foyelari uchun eshiklarni jozibador va go'zal naqshu nigorlar bilan bezadi. 1962-yilda esa Urganch vokzali uchun 2 va 4 tabaqali eshiklarni, Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi uchun va ustunlarni yog'och o'ymakorligining Xiva uslubiga xos betakror naqsh kompozitsiyalari bilan bezadi. Ota Polvonov umrining oxirigacha yog'och o'ymakorligining Xiva maktabini rivojiga beqiyos xissa qo'shdi.

Darhaqiqat, usta o'zi egallagan san'at sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatdi. Uning shogirdlaridan biri Safo Bog'ibekovdir. U ustozini bilan birgalikda ko'plab yog'och o'ymakorligi ishlarini amalga oshirdi. Jumladan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy teatri va Urganch temir yo'l vokzalida hamkorlikda ish olib borgan. Usta ko'plab jamoat va turar joy binolari uchun o'yma eshiklar, ustunlar, darvozalar va uy-ro'zg'or buyumlaridan quticha, lavh, xontaxta, kursi va boshqa bir qator buyumlar tayyorladi [17]. Xiva "Ichan-qal'a" muzeyida ustaning XX asrga oid qayrog'och daraxtidan ishlangan hajmi 48x20sm bo'lgan panno o'yma asari o'rin olgan [18]. Bundan tashqari, muzey fondida Safo Bog'ibekovning 1978-yilda qayrog'ochdan ishlangan sandig'i

saqlanadi [19]. Muzey ekspozitsiyasida usta Safo Bog'ibekovning o'g'li Hayitmat Bog'ibekovning yog'och o'ymakorlik asarlari ham o'rin olgan. Ekspozitsiyasida ustaning ijodiga mansub Al-Xorazmiy portreti namoyishga qo'yilgan [21]. Usta zamonaviy binolarni sharqona uslubda o'yma naqshlar bilan bezashda ham o'ziga xos yangicha uslublar yaratdi. Xorazm yog'och o'ymakorligi rivojining eng asosiy omillaridan biri bu erda "Ustoz-shogird" maktabining an'anaviy tarzda davom ettirilayotganidir, - deydi "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Hayitmat Bog'ibekov. Shu sababli, maktab yaratgan naqshlar asrlar osha o'z shaklini yo'qotmay kelayapti.

Xulosa va takliflar. Xulosa va takliflar sifatida ta'kidlash joizki, Xorazm yog'och o'ymakorligi milliy amaliy san'atning yuksak namunasi bo'lib, u tarixiy xotira, estetik tafakkur va ma'naviy qadriyatlarining uzviy birligini ifodalaydi; uni muzeylashtirish va saqlash jarayonlari, ayniqsa Ichan-Qal'a muzeyi tajribasi asosida, ilmiy konservatsiya, raqamlashtirish va zamonaviy ekspozitsion yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. Shu bois, birinchidan, yog'och o'ymakorligi namunalari uchun maxsus mikroiklim sharoitlarini yaratish va doimiy monitoring tizimini joriy etish; ikkinchidan, restavratsiya jarayonlariga mahalliy ustalar bilan bir qatorda xalqaro ekspertlarni ham jalb qilish; uchinchidan, muzey pedagogikasi, mahorat darslari va interaktiv ko'rgazmalar orqali yoshlar ongida milliy merosga hurmat tuyg'usini kuchaytirish; to'rtinchidan, ilmiy kataloglar va raqamli platformalar orqali ushbu san'at turini global madaniy makonga faol integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina Xorazm yog'och o'ymakorligi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida saqlanadi, balki zamonaviy madaniy taraqqiyotning faol omiliga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov X. "Usta Qodir". -T., G.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 6-bet
2. Abdurasulov A. Xiva.O'zbekiston.1997.
3. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent «Mexnat» 1991 y. 229 – 231 betlar.
4. Mirzaaxmedov. M., Ergashev S. Yog'och o'ymakorligi. Toshkent – O'qituvchi 1995 y.
5. Dala yozuvlari. Xiva shahri 2023 yil
6. Bobojonov D., Abdullayev M. Xorazm amaliy san'at ustalari. – Xiva. Xorazm Ma'mun akademiyasi 2010 – 5 bet
7. Xiva Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi jamg'armasi. GX M3 KP 6241/25; GX M3 KP 5958/50
8. Музей истории Хорезма имени Ал-Хорезми и Беруни (Wayback Machine saytida 2022-05-20 sanasida arxivlangan) traveluzbekistan.uz
9. Dala ma'lumotlari. Xiva "Ichan-qal'a" muzey-qo'riqxonasi. 2024 yil.
10. Xiva Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi jamg'armasi. GX M3 KP 6241/25;
11. Dala ma'lumotlari. Xiva Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi. 2024 yil.
12. Xiva Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi jamg'armasi. KP 200 raqamli o'yma eshik.
13. Boltayev A. Xorazm tarixi.88-daftar Qo'lyozma, 49-varaq.
14. Bobojonov D., Abdullayev M. Ko'rsatilgan asar.
15. Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondi ekspozitsiyasi. KP 4695/22 raqamli asar.
16. Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi fondi ekspozitsiyasi. KP KP 4636 raqamli sandiq
17. Sultonov A. "Xivalik yog'och o'ymakor Ota Polvonov". "San'at" jurnali 4-son. 2009 yil
18. Xiva "Ichan-qal'a" muzey qo'riqxonasi jamg'armasi. KP 6139/4 raqamli, "Al-Xorazmiy" portreti